
QANJIRG'A MAHALLASIDAGI KO'PRIK TA'MIRLANIB, KENGAYTIRILMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 dekabrda "2023-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-465-sonli qaroriga asosan Toshloq tumanidagi 4R 140 "Marg'ilon shahri - Quva tumani - Marhamat tumani - Aravon sh." avtomobil yo'lining 15 km qismidagi ko'prikn rekonstruksiya qilish ishlari boshlandi.

"Qanjirg'a" MFY hududidan o'tuvchi Yozyovonsoy tashlamasi ustida 1967 yilda qurilgan davlat ahamiyatidagi ushbu yo'l o'tkazgich yaroqsiz holatga kelib qolganligi bois «BRK Guliston» MCHJ tomonidan ta'mirlanmoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, mazkur ko'prikn uzunligi 36 metr, eni esa 12 metrni tashkil etadi. Loyihaning umumiy qiymati 4 milliard 650 million so'mni tashkil etadi.

«BRK Guliston» MCHJ ish yurituvchisi Bahodir Mamatovning qayd etishicha, ushbu ko'prikn rekonstruksiya qilish uchun davlatimiz tomonidan katta mablag' jalb etilgan. Yuk ko'tarish quvvati zamonaviy talablarga javob bera oladigan, uzunligi 36 metr, eni 16 metr hajmga ega ko'prikn ta'mirlash ishlari tez va sifatli olib boriladi. Buning uchun maxsus texnikalar, mutaxassislar va ishchi-xodimlar jalb qilingan. Ko'prikn ta'miri uchun zarur bo'ladigan barcha qurilish mahsulotlari keltirilgan.

2023-10-19 15:31:41